

TA'LIM TIZIMIDA MEDIA VA AXBOROT SAVODXONLIGI VA UNING HAYOTDAGI O'RNI

*Marg'ilon 1-son kasb-hunar maktabi
Maxsus fan o'qituvchisi
Mahmudova Sayyora Halimjonovna*

Annotatsiya. *Ta'lism tizimida media va axborot savodxonligi va uning hayotdagi o'rni xaqida ma'lumotlar berilgan.*

Kalit so'zlar: *Media, axborot savodxonlik, infoetika, MAS, axborot oqim, Telemedium, www.admongo.gov.*

KIRISH

Hozirgi kunda media savodxonlik nima? Nega bugun uning ahamiyati tobora ortib bormoqda? Axborot oqimining bir necha barobar tezlashishi, ijobiy ma'lumotlar bilan bir qatorda salbiy xarakterdagi axborotning ko'payishi media savodxonlikka ega bo'lish zaruratini qo'ydi. An'anaviy tarzda media savodxonlik shaxsning adabiya sirlarni tahlil eta olish va sifatli matnlarni yaratishidan iborat bo'lgan.

Bugun media savodxonlik – axborotning nega va nima uchun uzatilayotganligini bilish demakdir. Media savodxon inson o'ziga bu axborotni kim va nima maqsadda yaratgan? Ushbu xabar men uchun zarurmi? Degan savolni bera olishi va to'g'ri xulosa chiqarishi, unga nisbatan tanqidiy yondashishi lozim. Mazkur savollar nafaqat siz oilangiz davrasida televizor ko'rayotgan, mashinada radio eshitayotgan yoki internetdagi xabarlarni ko'rayotgan paytda berilishi, balki har qanday axborotni qabul qilayotgan va unga baho berayotganda ham kerak.

Media savodxonlik tushunchasi borasida turli fikrlar mavjud bo'lib, AQShning Jamiyat xususidagi xalqaro ensiklopediyasida qayd etilishicha, "Media savodxonlik — inson jamiyatdagi fuqaro sifatidagi mas'uliyatini his qilgan holda faol va savodli bo'lishi, media matnlarni qabul qila olishi, yaratishi, tahlil eta olishi va baholashi, zamonaviy mediani ijtimoiy madaniy va siyosiy mazmunini tushuna olishi demakdir". Media savodxonlikning maqsadi har bir medianing ustuvorliklari va kamchiliklarini tushungan holda ular tomonidan tarqatilayotgan axborotni saralay bilish va zarurini qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish bo'lsa, asosiy vazifasi insonlar tomonidan iste'mol qilinadigan har qanday axborotning

manipulyativ kuchini anglagan holda undan chegaralanishdir.

Bugungi kunda media, ya'ni ommaviy axborot vositalari, kino, teatr, san'atning turlari, madaniyat sarchashmalari, internet orqali uzatilayotgan har qanday ma'lumot inson ongiga o'zining ma'lum bir ta'sirini o'tkazib, uning dunyoqarashini o'zgartirishga sabab bo'lmoqda.

Media savodxonlikni o'rganadigan eng qadimgi tashkilot bu "National Telemedia" Council (Milliy Telemedia Kengashi) Viskonsin shtatining Madison

shahrida joylashgan va Marieli Rou 50 yildan ortiq rahbarlik qilgan. Tashkilot dastlab “Telemedium” deb nomlanuvchi media savodxonlik jurnalini nashr ettirgan.

Dunyoning turli mamlakatlarida media savodxonlik bo'yicha dasturlar ishlab chiqilgan. Hozir ushbu dasturlarni davlatlar kesimida ko'rib chiqamiz. Turli mamlakatlarda media savodxonlikni oshirish bo'yicha bajarilgan ishlar AQShda media savodxonlikni oshirish bo'yicha bir nechta federal agentliklar tomonidan dasturlar ishlab chiqilgan. Masalan, AQSh federal savdo komissiyasi tomonidan ishlab chiqilgan Admongo dasturi 8-12 yoshdagi bolalar uchun mo'ljallangan bo'lib, unda bola www.admongo.gov sayti orqali onlayn o'yinni o'ynaydi. Bu o'yin bolalarda media savodxonlik hamda reklamalarni tahlil qilish qobiliyatini oshiradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Admongoni muntazam ravishda o'ynab kelgan bolalar, bu o'yinni o'ynamaganlarga nisbatan media savodxonlik bo'yicha o'tkazilgan testda 9 %ga yaxshiroq natija ko'rsatgan.

Ta'lim tizimida media va axborot savodxonligi (MAS) muhim rol o'ynaydi. Ushbu tushunchalar zamonaviy jamiyatda odamlarning ma'lumotni to'g'ri qabul qilish, tahlil qilish va undan foydalanishni o'rganishlariga yordam beradi. Ularning hayotdagi o'rni quyidagi jihatlarda namoyon bo'ladi:

1. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish. Media va axborot savodxonligi talabalarni tanqidiy fikrlashga o'rgatadi. Talabalar turli manbalardan kelayotgan ma'lumotlarni tahlil qilish, ularning ishonchlilagini baholash va xulosa chiqarish qobiliyatini rivojlantiradilar.

2. Axborotning ko'p qatlamliligi. Zamonaviy dunyoda axborot miqdori ortib bormoqda, shuning uchun talabalar har xil manbalardan kelayotgan ma'lumotlarni ajratish va kerakli bo'lganini topa olishlari zarur. Media savodxonligi ularga bu jarayonda yordam beradi.

3. Axborotni yaratish va tarqatish. Talabalar nafaqat axborotni iste'mol qiladilar, balki uni yaratish va tarqatishda ham faol rol o'ynaydilar. Bu jarayonlarda etik me'yorlarga rioya qilish,adolatli axborot tarqatish kabi masalalarni tushunishga yordam beradi.

4. Ijtimoiy faollik. Media va axborot savodxonligi ijtimoiy masalalarda faol bo'lishga imkon beradi. Ommaviy axborot vositalaridan foydalangan holda talabalar jamiyatdagi muammolarni ko'rib chiqib, ularga yechimlar taklif etishlari mumkin.

5. Hayot davomida o'qituvchi media va axborot savodxonligi ko'nikmalari hayot davomida foydali bo'lad sababi ishda, shaxsiy hayotda yoki ijtimoiy munosabatlarda muhim qarorlar qabul qilishda zarur bo'lgan axborotni to'g'ri tanlash imkonini beradi.

6. Texnologik bilimsizlikka qarshi kurash. Zamonaviy texnologiyalar rivojlanishi bilan birga, media savodxonligi texnologik bilimsizlikka qarshi kurashishda muhim ahamiyatga egadir. Talabalar raqamli vositalarni qanday ishlashni bilishi lozim.

Ta'lim tizimida media va axborot savodxonligi juda muhim. Uning hayotdagi o'rni quyidagicha:

Media va axborot savodxonligi ta'lim tizimidagi roli

• O'quvchilarni turli axborot manbalarini tahlil qilishga va haqiqatni noto'g'ri ma'lumotlardan ajratishga o'rgatadi.

• Axborot oqimini boshqarish. O'quvchilarni katta hajmdagi ma'lumotlarni samarali qabul qilish va ulardan foydalanishga tayyorlaydi.

• Texnologiyalardan foydalana olish imkoniyati. Raqamli vositalardan xavfsiz va maqsadli foydalanishni o'rgatadi.

Media va axborot savodxonligining hayotdagi o'rni

• Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va kiberxavflardan saqlanish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

• Fuqarolarni ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida faol va mas'uliyatli ishtirok etishga undaydi.

• Ish joyida zarur bo'lgan axborot texnologiyalari va raqamli ko'nikmalarni rivojlantiradi.

Media va axborot savodxonligi ta'lim tizimidagi ahamiyati

• Odamlarni tanqidiy fikrlash va axborot oqimida yo'nalish olish orqali demokratik jamiyatda faol ishtirok etishga yordam beradi.

• Yangi g'oyalari va texnologiyalarni yaratishga va ulardan samarali foydalanishga imkon beradi.

Media va axborot savodxonligi zamonaviy dunyoda har bir inson uchun zaruriy ko'nikma hisoblanadi.

Xulosa. Umuman olganda, ta'lim tizimida media va axborot savodxonligi talabalarning zamonaviy dunyoda muvaffaqiyatli yashashi uchun zarur ko'nikmalarni shakllantiradi. Bu esa ularni jamiyatning faol a'zolari sifatida tarbiyalashga yordam beradi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. «Zamonaviy axboriy makonni yaratishda feyklar va Targ'ibot»: maqola/ G.G. Pocheptsov. – M.: Ukraina Matbuot Akademiyasi, 2020.

2. Barakayevich, Q. S., & Baxtiyorovna, A. S. (2021). Xalqaro dastur talabalari asosida innovatsion ta'lim muhitini yaratish. Integration of science, education and practice. scientific-methodical journal, 1(02), 132-137.

3. «OAV jamiyatga manipulyativ ta'sir ko'rsatishning kanali sifatida»: maqola. // Ya.Polishuk, S.Gnatyuk, N.Seylova. – Ukrainian Scientific Journal of Information Security, 2015.

4. «Axborot turlari va uning jihatlari»: maqola. // Wikidarslik

5. «Axborotning tasnifi»: maqola. // Lug'atlar va ensiklopediyalar. – Akademika, 2020.

6. «Ommaviy axborot va kommunikasiya nazariyasi». // S.V. Partyko. – Lvov: Afisha, 2008.

7. TA'LIM JARAYONIDA MULTIMEDIA VOSITALARINI QO'LLASH – тема научной статьи по СМИ (медиа) и массовым коммуникациям читайте бесплатно текст научно-исследовательской работы в электронной библиотеке КиберЛенинка (cyberleninka.ru)

8. Axborot savodxonligi va axborot madaniyati - O'rta ta'lism va maktablar 2024 (vogueindustry.com)

9. Media va axborot savodxonligi tushunchasi va uning ahamiyati (arxiv.uz)